QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA TA'SIRINI O'RGANISH MUAMMOSI

(Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari)



QARSHI - 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA TA’SIRINI O‘RGANISH MUAMMOSI

(Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari)

2023-yil 13-oktabr

Qarshi
“Nasaf” NMIU
2023

UO‘K 4c 9 (Ўз)
KBK 83.3(5O‘zb)5
J 12

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘ining 1-ilovasi “2023-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ga muvofiq Qarshi davlat universitetida 2023-yil 13-oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan “Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’sirini o‘rganish muammosi” mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiyasiga taqdim etilgan maqola va tezislarni o‘z ichiga oladi.

Konferensiya materiallarida o‘zbek mumtoz adabiyoti va jadidchilik masalalari, jadidchilik g‘oyalari va yangi o‘zbek adabiyoti, jadidchilik va turkiy xalqlar adabiyoti, jadidchilik va turkiy tillar muammosi, ta’lim bosqichlarida jadidchilik va jadid adabiyotining o‘qitilishi masalalari qamrab olingan.

To‘plam soha mutaxassislari, filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba va magistrlar hamda o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

KONFERENSIYA TASHKILIY QO‘MITASI TARKIBI:

D.H.Nabiyev – universitet rektori, professor
A.E.Xolmurodov – o‘quv ishlari prorektori, professor
I.R.Bekpo‘latov – ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, professor
O‘.Sh.Abdullayev – yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, PhD, dots.
X.G‘.Djurayev – moliya-iqtisod ishlari prorektori
B.X.Rizayev – Filologiya fakulteti dekani, PhD, dots.
D.J.Rahmatova – universitet tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi direktori, PhD, dots.

MAS’UL MUHARRIR: **N.N.Shodmonov –** f.f.d., prof.
MAS’UL KOTIB: **G.H.Ernazarova –** f.f.d., prof.

TAQRIZCHILAR:
N.A.Jabborov – f.f.d., prof.
O.R.Jo‘raboyev – f.f.n., katta ilmiy xodim

TAHRIR HAY’ATI:
D.To‘rayev – f.f.d., prof.
B.Yo‘ldoshev – f.f.d., prof.
G.Imomova – f.f.d., dots.
Sh.Nuriddinov – f.f.d., dots.
R.Jumayev – PhD, dots.
S.Mo‘minova – f.f.n., dots.
N.Umarova – PhD, dots.
G.Ravshanova – PhD, dots.
U.Abdullayeva – PhD, dots.
G‘.Shodmonov – PhD, dots.

Qarshi davlat universiteti Kengashining 2023-yil 5-oktabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

© To‘plam, 2023-yil
© “Nasaf” NMIU, 2023-yil

ISBN 978-9910-9711-9-8

shoirlarning o‘zlari bo‘lib, ular jamiyat aholisi tilidan nutq so‘zlagani holda erkinlikka mushtoq bo‘lgan ko‘ngil holatlarini yoritib beradilar:

Ko‘ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do‘stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding? [4, 444]

Said Ramiyev ham shoir Cho‘lpon kabi ijtimoiy hayotning tobora tubanlik botqog‘iga botib borayotgnligining guvohi bo‘lib, she’r misralarida yurakdan ingrab yozadi. U yuragidan qaynab chiqayotgan hasratlarini o‘t deb biladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy uyg‘onish davri Farg‘ona vodiysi shoirlari Muhayyir, Abdulhamid Cho‘lpon, Husaynquli Muhsiniylarning qalamiga mansub bo‘lgan ijtimoiy mazmundagi ayrim she’rlar shu davrning turkman va tatar ijodkorlarining poetik merosiga uyg‘un jihatlar kuchli seziladi. Dunyoni tubdan yangilanish ehtiyoji tug‘ilgan aynan bir davrda yashab ijod etgan qardosh millat vakillari, ya’ni o‘zbek, turkman, tatar shoirlari ijodida jamiyatning noraso yurgizilayotgan siyosatidan ko‘ngil qolish motivlarini oshkora kuyladilar hamda ularning ijodida aholini birlik tomon chorlash, ozod va obod Vatan istiqbolini ko‘rish yo‘lidagi yagona istak ostida birlashish g‘oyalari ilgari surildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муҳаййир. Девон / Нашрга тайёрловчи: Деҳқонов А. – Тошкент: Муҳаррир, 2010.
2. www.ziyo.uz.com.Tataradabiyoti.SaidRamiyevshe’riyati.
3. Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. (Девон) / Нашрга тайёрловчи: Неъматов У. – “Фарғона” нашриёти, 2008.
4. Чўлпон. Яна олдим созимни / Тўпловчилар: Каримов Н., Турдиев Ш. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.

TURKISTON MADANIY HAYOTINING TURK MATBUOTIDA YORITILISHI

Sarvarbek TULIBOYEV,
***O‘zbekiston,* TerDU, o‘qituvchi.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlari turk matbuotida Turkiston madaniy hayotiga doir qarashlar, jumladan, jadidchilik harakati, millat oydinlarining matbuotdagi faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, asr boshidagi ijtimoiy-maishiy, siyosiy-iqtisodiy holatning matbuotda yoritilishi va bunga turk matbuotining ta’siri haqida atroflicha so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: matbuot, jadidchilik, Turkiston, gazeta, madaniy hayot.

Ushbu mavzuda so‘z yuritar ekanmiz, avvalo, Turk matbuotining paydo bo‘lishi haqida biroz ma’lumot berib o‘tishni lozim topdik. Dunyo turklari orasida matbuotning paydo bo‘lishi ilk marta Usmonlilar imperiyasi davrida ko‘zga tashlanadi. Aytish mumkin, qator jabhalarda ilg‘or sanalgan Usmonli imperiyasi bu borada g‘arbdan anchagina ortda qolgan edi. G‘arbda ilk matbaaga 1436-yilda nemis olimi Iogann Gutenberg tomonidan asos solinib, birinchi kitob 1440-yilda nashr etilgan. Usmonli Imperiyasi o‘sha davrda gullab-yashnagan bo‘lsa-da, salkam 300 yilga yaqin kechikish bilan birinchi turk bosmaxonasi 1727-yilda tashkil etilgan. Ayrim manbalarda Usmonlilar imperiyasida matbaachilikning kech rivojlanishiga davr din ulamolari tomonidan ko‘rsatilgan qarshiliklar sabab qilib ko‘rsatilgan.

Ba’zi tadqiqotchilar ushbu taxminlar asossiz deb bilishadi. Jumladan, professor Nurettin Guz “Bosmaxonaning mamlakatga kech kirib borishi va uning rivojlanmaganiga din va ulamoning hech qanday aloqasi yo‘q. Ular bosmaxonaga qarshi bo‘lmagan, aksincha, uning tashkil etilishi ulamolar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan”- degan fikrlarni bildirib o‘tadi [1, 166].

Texnik taraqqiyotning yetarli emasligi bosmaxona rivojlanmaganligining asosiy ikkinchi sababi sifatida ko‘rsatiladi. Shuning natijasida 1742-yilda qog‘oz taqchilligi boshlanib, qog‘oz

ishlab chiqarish sexini tashkil etish uchun mamlakatga Polshadan ikki usta olib kelinishi manbalarda qayd etiladi [1, 166].

XVIII asrning birinchi yarmidagi 13 yil, ya'ni 1718–1730-yillar turk adabiyotida "Lola davri" deb yuritiladi. Bu atamani birinchi bo'lib Yahyo Kamol qo'llagan. 1913-yil Ahmad Rafiq Oltinoy e'lon qilgan "Lola davri" nomli kitob bu davrning o'ziga xos o'rni borligini, adabiyotda, san'atda rivojlanish davri bo'lganligini ko'rsatadi.

Turk adabiyoti tarixida "Lola davri" deb atalgan bu davrning muhim voqealaridan biri Istambulda bosmaxonaning ochilishidir. Parijga elchi sifatida jo'natilgan Mehmed Chalabiyning o'g'li Mehmed Said Afandi, asli Vengriyada tug'ilgan, islom dinini qabul qilgan Ibrohim Mutafarrika (1674–1745) bilan hamkorlikda sultonning va shayxulislomning roziligini olib, 1724-yili Istambulda birinchi turk nashriyotini ochadilar. Ayrim qarshiliklarga qaramasdan nashriyot 1729-yili ishga tushadi. 1729–1742 yillarda tarix, geografiya, grammatika, lug'at, sayohatnomalar kabi 17 nomda kitoblar bosiladi. Bu madaniy hayotdagi katta voqea edi [2, 107-108].

Bugungi Turkiya hududida chop etilgan birinchi gazeta Sulton Mahmudxon II davrida 1831-yil 11-noyabrda Istanbulda nashr etilgan "Taqvimi vaqoye" (Voqealar taqvimi) nomli rasmiy gazetadir.

Bu Usmonlilar imperiyasi chegaralarida nashr etila boshlangan birinchi Usmonli turk gazetasi edi. Gazeta Usmonli turk tilidan tashqari arab, arman, fors, fransuz va yunon tillarida nashr qilinadigan haftalik gazeta bo'lib, rasmiy va norasmiy e'lonlar bilan bir qatorda, imperiya ichidagi hamda xorijdagi muhim voqealarga oid yangiliklar ham chop etiladi.

"Taqvimi vaqoye" rasmiy gazeta bo'lgani uchun maqolalarda asosan davlat qarashlari ko'proq aks etgan. 1860-yildan boshlab faqat rasmiy e'lonlar va ipmeriyada qabul qilingan qonun matnlari ko'proq nashr etila boshlandi.

Shuningdek, gazetada Usmonli imperiyasi siyosatini boshqa davlatlarga yetkazishda, shuningdek, xalqaro munosabatlarda ham o'ziga xos vosita vazifasini bajargan deyish mumkin.

"Taqvimi vaqoye"dan to'qqiz yil o'tib "Jaridayi havodis" gazetasi o'z faoliyatini boshlaydi. Mazkur gazeta Uilyam Cherchill ismli ingliz tomonidan chop etiladi. Gazeta jamoasi mahalliy aholidan iborat bo'lib, davlat ruxsatisiz uning nashr qilinishi, xohlagan mavzuda yozishi mumkin emas edi. Biroq, uning xorijdagi vaziyatni turk kitobxonlariga yetkazishi, dunyodagi yangi ixtirolar, topilmalar haqida imperiya aholisiga ma'lumotlar berib borishi mumkin edi va bu holat, tabiiyki, aholi orasida gazetaga bo'lgan qiziqishni oshirgan [3, 44].

Ma'lumki, Usmonlilarda nashr etilgan dastlabki gazetalar faoliyati hukumatning qat'iy nazorati ostida bo'lib, 1860-yillarda shaxsiy sa'y-harakatlar natijasida "Tarjimoni ahvol" gasetasi yuzaga keldi.

Tanzimot adabiyotining timsoli va boshlanishi bo'lgan "Tarjimoni ahvol" 1860-1866 yillar oralig'ida Istanbulda nashr etilgan birinchi xususiy gazetadir. 1860-yil 22-oktyabrda Ogoh Afandi va Shinosiy tomonidan faqat yakshanba kunlari chiqadigan gazeta 1861-yil 22-apreldagi 25-soni bilan haftada uch kun (yakshanba, seshanba, payshanba) kunlari nashr etila boshlanadi. Vaqt o'tishi bilan gazeta "Jaridai havodis" gazetasi bilan raqobatlashish uchun nashrini besh kunga uzaytiradi. Bu gazetada Ahmad Vofiq Posho, Ziyo Posho va Rafiq Beylarning maqolalari tez-tez bosilib turardi. Bu maqolalarda Usmonli jamiyatining qoloqligi sabablari va o'lkada sodir bo'layotgan voqealar muhokama qilinib, ba'zi jihatlar tanqid ostiga olinardi.

Turkiyada 2-konstitutsiyaviy monarxiyaning e'lon qilinishi bilan matbuotda senzuraga qo'yilgan ta'qiq bekor qilindi. Usmonli imperiyasida yashagan turli til va dinlarga mansub har bir xalq o'z fikrlarini bildiragan gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi [4, 141]. Ma'lum bo'lishicha, Ikkinchi Konstitutsiyaviy monarxiyaning dastlabki uch yilida 607 ta davriy nashr nashr etilgan. Shuningdek, keyingi yillarda, jumladan, 1908-1918-yillar oralig'ida 918 ta davriy nashrlar nashr etilgan. Bulardan 722 ta turk, 49 ta fransuz, 42 ta fransuz-turk, 11ta ingliz, 67 ta arman, 5 ta arman-turk, 70 ta yunon, 3 ta nemis, 11 ta arab, 1 ta arab-turk, 5 ta fors, 1ta fors-turk, 1ta alban, 5 ta turk-kurd, 3 ta turk-cherkes tilida, ibroniy tilida 8 ta, serb-turk tilida 1 ta,

bolgar tilida 1 ta, rus tilida 1 ta va yana 25 ta xorijiy tillarda hamda turkiy tillarda jami 1038 ta gazeta va jurnal nashr etilgan [5, 215].

Turli mafkura va da'volar bilan paydo bo‘lgan matbuot nashrlari orasida islomiy va turkiy (yoki turonchi) jurnal va gazetalar alohida o‘rin tutadi. Bu davrda deyarli har bir nashrda Usmonlilar davlati va uning tashqarisidagi turk hamda islom dunyosida sodir bo‘layotgan voqealarga alohida o‘rin ajratiladi. Mintaqaga oid xabarlar bilan bir qatorda, turkiy-turonchi va yangilikchi-islomchi yozuvchilar hamda ziyolilarning maqolalari tez-tez ko‘rina boshladi. Ayni paytda Turkistonda juda faol davr boshlanganligi, (jadidlarning maydonga kela boshlashi *(S.T)*), Rossiyaning o‘zgarib borayotgan boshqaruvi va tobora og‘irlashib borayotgan "ruslashtirish" siyosati ham turk matbuotida kundalik dolzarb masalaga aylanib bordi [6, 152].

O‘sha davrning eng muhim islomiy nashri, shubhasiz, birinchi soni 1908-yil 24-avgustda nashr etilgan "Siroti Mustaqim" jurnali edi. Jurnal Rossiya hukmronligi ostida yashagan musulmon turklarning diniy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy faoliyati bilan yaqindan qiziqdi. Shunga ko‘ra jurnalning turli sonlarida chor Rossiyasi rejimi va ma'murlarining musulmon turklarga nisbatan o‘zlashtirish va bosim siyosatlari maqola va xabar sifatida keng muhokama qilindi. Jurnalda Rossiya turklari, jumladan, turkistonlik ziyolilarning maqola va maktublari ham o‘rin olgan bo‘lib, bular orqali o‘quvchilar musulmon turk dunyosidan xabardor bo‘lishlari mumkin edi [7, 8].

"Siroti Mustaqim" dunyo musulmonlarining "ovozi" bo‘lgani bilan ham diqqatga sazovor edi. Shuningdek, yana bir muhim jihati uning sahifalarida rus turklariga oid yangiliklarning kengroq yoritilganligi bo‘ldi [8, 18].

Xususan, Turkiston jadidchilarining yetakchisi Mahmud Xo‘ja Behbudiyning bir qancha maqolalari mazkur jurnalda ommaga taqdim etiladi.

Ayniqsa, Buxoro haqidagi maqolalarni tez-tez uchratish mumkin. Qolaversa, "Siroti Mustaqim"ning Buxorodagi maxsus muxbiri bo‘lgan G‘iyosiddin Hasaniy ismli muallifning Buxoro haqida ba'zilari imzolangan, ba'zilari imzosiz ko‘plab maqolalari bor. Hatto Buxoroda sodir bo‘lgan tarixiy voqealar, masalan, 1910-yil fevralida sunniy va shia o‘rtasidagi to‘qnashuv "Buxorodan Muxobiru Maxsus" sarlavhasi bilan batafsil bayon etilgan. Professor Z.Abdurashidov o‘z tadqiqotlaridan birida Buxoro haqidagi ilk xabar "Siroti Mustaqim" jurnalining 1909-yil 21-oktabrdagi 57-sonida e'lon qilindi, deb ma'lumot berib o‘tadi. Shuningdek, 1909-yil kuzida yangi usul maktabi atrofidagi tartibsizliklar va 1910-yil yanvaridagi shia-sunniy nizolaridan so‘ng turk matbuotida Buxoroga bag‘ishlangan materiallar soni juda ko‘payganini kuzatish mumkin. Ushbu maqolalarda, asosan Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy hayot ko‘proq tahlilga tortiladi. Ammo, Buxoroga bo‘lgan qiziqish tez orada so‘nadi. 1912-yildan boshlab Turkiston mavzusi turk nashrlari kun tartibidan deyarli tushib qoladi. Voqealarning bunday kechishiga, ehtimol, Bolqon yarim orolida boshlangan harbiy harakatlar sabab bo‘lgandir, deydi olim [9, 79].

Turk matbuotining Turkiston madaniy hayotiga ta'siri shu qadar bo‘ldiki, birgina Istanbulda nashr etilgan gazeta va jurnallarning sayohatchilar, ziyoratchilar va savdogarlar orqali Turkistonga kirib borishi pirovardida jadidlar nafaqat, islom olamidagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan xabardor bo‘lishdi, qolaversa, ular (jadidlar) ko‘pgina jihatlarni o‘z faoliyatlari davomida qo‘llay boshladilar. Bu haqida Sadriddin Ayniyning xotiralarida bir qancha ma'lumotlarni ko‘rishimiz mumkin.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonga kirib kelgan taraqqiyparvar gazetalar M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho‘lpon singari yoshlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida yashovchi xalqlar hayoti bilan, yangi asrning ma'rifatparvarlik g‘oyalari bilan tanishtira boshladi. Xuddi shu yillarda Rossiya, Eron va Turkiyada sodir bo‘lgan inqilobiy voqealar haqidagi xabarlar ham aynan shu nashrlar orqali Turkistonga yetib keldi.

Jadidparast yoshlar orasida Istanbul va boshqa musulmon shaharlardan kelayotgan gazetalarning ta'siri sezila boshlaganidan Buxoro amiri Rossiya hukumati bilan hamkorlikda gazeta o‘qilishining oldini olish choralarini ko‘ra boshlaydi. "Siroti Mustaqim"ning faoli,

mashhur islom sayyohi va yozuvchi Osiyoning ko‘p joylariga sayohat qilib, “Olami Islom” nomli kitob yozgan Abdurashid Ibrohim (1857-1944) Buxoro madrasalarida ko‘rgan manzarasini “Qozonlik rus zobiti Buxoro madrasalarida “zararli” nashrlar tarqalayotganligi, ayrim jurnallarda buzg‘unchi g‘oyalar singdirilgan maqolalar yozilayotganligi va bu maqolalarga xayrixohlik talabalar orasida keng tarqalayognaligini tekshirgan” ligini eslab o‘tadi [10, 50].

Manbalardan shun narsa ma’lum bo‘ladiki, Turkistonda “Siroti Mustaqim”dan keyin e’tiborni tortgan yana bir nashr “Taarufi Muslimin” jurnali ekanligini taxmin qilish mumkin. Gazeta asosan e’tiborini Rossiya musulmonlarining ozodlik kurashiga qaratgan. “Taarufi Muslimin”ni boshqargan shaxs asli kelib chiqishi Buxorolik Abdurashid Ibrohimdir. Gazetada Rossiya hududlari ayniqsa Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy-siyosiy yangiliklar aks etgan maqolalar tez-tez bosilib turardi. Ba’zi hududlarda jurnalning ko‘ngilli muxbirlari bor edi. Masalan, Buxorodan yozganlar orasida faqat Abdurauf Fitrat o‘zining aniq imzosi bilan maqolalar bergan bo‘lsa, boshqalar esa taxallusdan masalan, “Sherik” yoki oddiygina “Buxoro muxbiri”dan foydalanganlar.

Gazetadagi Turkistonga bag‘ishlangan maqolalarda o‘lka ruslar qo‘lida qolib, qiynoqqa solinganligi katta tashvish bilan ifodalangan. Ba’zilar Buxoro amiri va boshqa amaldorlarni befarqlikda ayblar ekan, hukmdorlarning o‘ylamasdan qilayotgan ishlari haqida gapiradilar. Turkiston masalalarini tez-tez kun tartibiga olib boradigan nashr, albatta, mintaqada katta qiziqish uyg‘otadi. Chunki Buxoro jadidlari yetakchilaridan biri Abdurauf Fitratning Buxoro vaziri Nasrulloh Parvonachiga ochiq maktubi ushbu gazetada e’lon qilingani bejiz emas. Nasrulloh bekning bosh vazir etib tayinlanishi munosabati bilan fors (tojik) tilida yozilgan maktub turkiyga tarjima qilinmasdan asl holida hijriy 1328, milodiy 1910 yil, 25-adad, 2-jild; 8-dekabr, payshanba sonida e’lon qilingan. Asarni dastlab fors tilidan tarjima qilib, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 1996-yil 9-may sonida e’lon qilgan H. Boltaboev o‘zbek fitratshunosligiga shu kungacha noma’lum bo‘lgan bu maktubni taqdim etgan Tokio universiteti professori, doktor Xisao Kumatsuga minnatdorchilik bildirib o‘tadi [11, 3].

Turkistonda yangi g‘oyalarning tarqalishiga hissa qo‘shgan yana bir Usmonli nashri Ahmad Hilmiy tomonidan Istanbulda nashr etilgan “Hikmat” gazetasidir. “Hikmat”ning birinchi soni 1910-yil 21-aprelda chiqqan. Ahmad Hilmiy ushbu gazetasida Turkiston masalalariga ham e’tibor qaratgan. Abdurauf Fitratning maqolalari esa gazetaning O‘rta Osiyodagi o‘quvchilari sonini oshishiga xizmat qilgan. Fitrat bu gazetada maqolalarini asosan, fors tilida nashr ettiradi. Gazetada bir yilga yaqin faoliyat ko‘rsatgan Fitratning jami yettita maqolasi chop etiladi. Bundan tashqari, Fitrat 1910-yil davomida o‘zining mashhur “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari ustida ishlagan. 1911-yili Fitrat, qiyin moddiy ahvoliga qaramasdan, turli joylarda ishlab topgan pulidan jamg‘argan mablag‘iga Ahmad Hilmiyning “Hikmat” nashriyotida o‘zining yuqorida nomi zikr etilgan ikki badiiy asari va “Sayha” she’riy to‘plamini chop qiladi.

Turkiston bilan qiziqqan va bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida tez-tez “gapiradigan” matbuotdan yana biri “Turk Yurdu” jurnalidir. Mashhur turkiyshunos olim Zaki Validiy Tog‘on o‘zining “Xotiralar”ida Turkistondagi safari davomida ko‘rgan-kechirganlarini xotirlar ekan, “…Turkistonda tanishgan shaxslar orasida Nazir To‘raqul bilan Abdulhamid Sulaymon (Cho‘lpon) menga alohida yaqin do‘stlar bo‘ldilar. Nazir o‘sha vaqtda vatanparvar turkchi edi. Istambulda chiqadigan “Turk yurti”ni o‘qirdi” – deydi olim [13, 132].

Qrimda jadidchilikning asoschisi Ismoilbek Gaspirali tomonidan 1883- yildan beri nashr etilgan “Tarjumon” gazetasi Turkiston madaniy hayoti taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Sadriddin Ayniy chet el matbuotining mintaqaga kirib kelishi haqida gapirar ekan, “Tarjumon”ni alohida tilga oladi:

“… Hayrat Hindistonda fors tilida chiqadigan “Hablul matin” gazetasini, Misrda fors tilida bosiladigan “Chehranamo” gazetasini ba’zan qayerlardandir topib kelar edi. Biz bu gazetalar orqali dunyoning ahvoli bilan oz bo‘lsa ham tanishar edik. O‘sha vaqtlarda Abdulqodir maxdum degan bir saboqdoshimiz bo‘lib, qayerdandir “Tarjimon” gazetasini topib kela boshladi. “Tarjimon” qrimda nashr qilinar edi, uning yarmi tatarcha, yarmi ruscha edi” [14, 63-64].

Turk matbuoti faqatgina Turkiston matbuotiga ta'sir qilib, uni "uyg'otib"gina qolmadi. Pirovardida yangi usuldagi maktablarning aynan jadidlar tomonidan tashkil etilishi millatni ma'rifatli qilish yo'lidagi yana bir keskin burilish edi. Chor hukumati "ruslashtirish" siyoasi natijasida Turkistonga ko'chirib kelingan "mujik"larning boshlarini silab, mahalliy xalqni ezish va feudal qoloqlik sharotda ushlab turish uchun misli ko'rilmagan tubanliklarni amalga oshirdi. Natijada, mahalliy xalqning har jabhadagi ahvoli chidab bo'lmas darajada mushkullashdi.

Turkiston xalqlarining shu davrdagi hayoti, dunyoqarashi, saviyasi, mentalitetga xos salbiy xislatlar, tobora ildiz otib borayotgan illatlar Behbudiyning "Padarkush" pyesasida, Fitratning "Munosara"sida, Cho'lponning "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadiyor" hikoyalari va va boshqa o'nlab jadid adabiyoti namunalarida qattiq qoralandi. XX asr boshlaridagi turmushning o'ta ayanchli holatga kelib qolganligini o'z ko'zlari bilan ko'rgan ziyolilar, yuqorida nomlari tilga olingan gazeta va jurnallarni o'qiganlaridan keyin, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydilar. Ismoil Gaspirnskiy 1893-yili Samarqand va Buxoroga tashrifi davomida M.Behbudiy va A.Shakuriy singari millat peshqadamlari bilan tanishishi asnosida Buxoroda tashkil etilgan "usuli jadid" maktabi, keyinchalik Samarqand, Qo'qon, Toshkent, Andijon singari shaharlarda ham jadid maktablari tashkil etilishiga zamin yaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, millat oydinlari xalqni ma'rifatli qilish, ularga yo'l ko'rsatishning eng qulay usuli sifatida matbuotdan foydalandilar. Gazeta va jurnallarning nashr etilishi butun turkiy adabiyotga yangi janrlar: maqola, roman, hikoya, tanqid kabi janrlarning kirib kelishiga yo'l ochdi. Islohotchilar xalqni savodli qilish, yangi yaratilgan adabiyotni ommaga tanishtirish maqsadida ularga yetib boradigan eng qisqa yo'l "gazeta"dan foydalanganlar.

Ta'kidlash joiz, Turkiston matbuot vositasida qardosh va maslakdosh, tildosh va dindosh turk olamiga chiqdi. Ular bilan o'z taqdirini bir ko'rib, o'tmishning achchiq tajribalaridan saboq chiqarishga, kelajak uchun bir tanu-bir jon bo'lib kurashishga ishonch hosil qildi. Bir so'z bilan aytganda, jadid matbuoti millatni uyg'otib, uni mustaqillik uchun tayyorlashni sharaf bilan amalga oshirdi va eng qiyin vaziyatlarda ham millat yonida turdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G. Nurettin, "Türkiye'de Matbaanın Kurulması", Gazi Üniversitesi Basın-Yayın Yüksekokulu Dergisi, 1986-1987/8-9, Ankara, 1989.
2. A.Alimbekov. Turk adabiyoti tarixi (XIII-XVIII asrlar). O'quv qo'llanma. Toshkent – 2005.
3. T.Hıfzı, 2. Mahmut'tan Holdinglere Türk Basın Tarihi, Remzi Kitabevi, İstanbul, 2014.
4. D.Oya, II. Meşrutiyet'in İlanının İstanbul Basını'ndaki Yansımaları (1908), İ.Ü.Siyasal Bilgiler Fakültesi Dergisi, No:38 (Mart 2008).
5. O.Süreyya, Türk Basın Tarihi 1728-1922 1831-1922: Osmanlı İmparatorluğu Dönemi, Oral Yayınları, Ankara, 1970.
6. Ö. Sevda, Meşrutiyet Dönemi Basınından Örneklerle Türkistan, Kesit Yayınları, İstanbul, 2016.
7. K.Hisao, 20.Yüzyıl Başlarında Orta Asya'da Türkçülük ve Devrim Hareketleri, Turhan Kitabevi Yayınları, Ankara, 1993.
8. Ö.Nadir, Abdürreşid İbrahim'in İkinci Meşrutiyet Yılları: Tearüf-i Müslimin ve İslam Dünyası Dergileri, Toplumsal Tarih, v.4, n.20, August 1995.
9. Z.Abdurashidov. "Shimol shamoli" yoki Buxoroning uyg'onishi: Istanbuldan bir nazar.// "O'zbekiston: til va madaniyat"// 2022-y. №-3.
10. I.Abdürreşid, 20. Asrın Başlarında İslâm Dünyası, İstanbul 1987.
11. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati"/ 1996 yil 9-may, № 19.
12. Z.Validiy To'g'on. "Xotiralar". Tarjimon: Sh.Turdiyev. "Sharq yulduzi" 1993-y. 5-6-sonlar.
13. A.Sadriddin, "Qisqacha tarjimai holim", Tanlangan asarlar. 8 jildlik, 1-jilt, "Badiiy adabiyot", Toshkent–1960.

MUNDARIJA

D.H. Nabiyev	Fidoyi ma'rifatparvarlar faoliyati – ilmiy tadqiqotlar ko'zgusida	3
1-SHO'BA: O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI VA JADIDCHILIK MASALALARI		
Nurboy Jabborov, Islam Jemeney	Turkiston matbuotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi.....	5
Uzoq Jo'raqulov	Jadid estetikasining shakllanishi.....	9
Zaynabidin Abdirashidov	Ismoil Gasprinskiyning Alisher Navoiy ijodiga munosabati	16
Rashid Jumayev	Fitrat – mashrabshunos.....	20
Odiljon Avaznazarov	Yo'l obrazi: an'ana va novatorlik.....	23
Zilola Namozova	Jadid she'riyatida mumtoz an'analar takomili.....	26
Furqat To'xtamurutov	Muhsiniy she'riyatida ijtimoiy muhit talqini.....	29
Dilnoza Xudayarova	Komil Xorazmiy masnaviylarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	32
Nigora Bo'tayeva	Komil Xorazmiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari to'g'risida	36
Surayyo Shodiyeva Yusuf Amonov	Salohiyning gul va bulbul obrazi jadid adabiyoti namoyandasi Abdulla Avloniy talqinida.....	38
Ziyadulla Kenjayev	Navoiyning forsiy merosi Fitrat talqinida.....	40
Muhayyo Yaminova	Komil Xorazmiy ijodida an'anaviy poetik obrazlar tadriji	42
2-SHO'BA. JADIDCHILIK G'OYALARI VA YANGI O'ZBEK ADABIYOTI		
Nafas Shodmonov	Behbudiy publitsistikasining mavzuiy xarakteri.....	45
Gulnoza Ernazarova	Jadidchilik va milliy adabiyot.....	51
Shahobiddin Nuriddinov	Miskinning ma'rifiy qarashlari.....	55
Orzigul Hamroyeva	Fitratning adabiy tur va janrlarga munosabati.....	58
Gulchehra Imomova	Jadid hikoyalarida milliylik va an`analar talqini.....	61
Otabek Jo'raboyev	Ikki jadid munavvari – Hamza va Cho'lpon munosabatlari xususida.....	66
Shahlo Hojiyeva	Cho'lpon va jadidchilik.....	70
Saodat Mo'minova	O'zbek dramaturgiyasi rivojida Hamzaning o'rni.....	73
Dildora Raxmonova	Adabiy-estetik tafakkur – poetik obraz yangilanishi asosi.....	75
Abdumurod Arslonov, Nodira Egamkulova	Turkistonda milliy matbuot va adabiyot.....	77
Ozodaxon Boltaboyeva	Is'hoqxon To'ra Ibrat she'riyatining mavzu ko'lami va janr xususiyatlari.....	81
Gulruxbegim Ravshanova	Jadid hajviyotining rivojlanish bosqichi.....	84
Oybarchin Abdulhakimova	Behbudiyning adabiy tanqidga doir qarashlari.....	87
To'lqin Kenjayev	Fitrat publitsistikasining ijtimoiy-estetik talqini.....	89
Shahnoza Qahhorova, Farhod Qiyomov	Usmon Nosir adabiy merosining tasnifiy tahlili.....	92
Shohida Karamova	Barmoq – milliy she'riyatimizning asosiy vazni.....	98
Nilufar Sultonova	Jadid romanlarida badiiy modifikatsiya.....	100
Nodira Xolikova	Hamza she'rlarida zamondosh ayollar obrazi ("Oymisan yo qamara…" she'ri tahlili misolida).....	103
G'iyosiddin Shodmonov, Shohista Shermamatova	Jadidlar ijodida ziyoli obrazi.....	105
Maxsuda Berdimuratova	Jadid dramaturgiyasida inson va istiqlol konsepsiyasi (Behbudiy va Fitrat dramalari misolida).....	108
Normurod Avazov,	Jadid adiblarining ijodida millat talqini.....	112
Nilufar Cho'liyeva	Badiiy asarda "Kecha, tun" so'zlarining g'oyaviy-badiiy qirralari.....	116
Muhayyo Rayxonova	O'zbek she'riyatida erk talqini.....	117

Umida Abdullayeva	Jadid shoirlari ijodida ijroviy lirika.....	120
Latofat Tajibayeva	Yangi o‘zbek she’riyatining mazmuniy yangilanishi	123
Kamol Hakimov	“O‘tkan kunlar” romanida tarixiylik masalasi.....	126
Dilorom Sodiqova	Cho‘lpon- tong yulduzi.....	129
Muhabbat Rajabaliyeva	Mahmudkhoja Behbudi'nin aydınlanması veya bilim adamı Poyon Ravşanov'un gerçekleri.....	130
Klara Dusyorova	Jadidchilik va o`zbek adabiyotining rivojlanish masalalari....	132
Феруза Юсупова	Идеал справедливости и критерии прогресса в идеологии джадидизма.....	134
Nilufar Umarova	Jadid ziyolilari ijodida milliy etika masalalari.....	135
Sherzod Akramov		
Farhod Qiyomov	Obraz badiiy tasvirining manbalari.....	137
Sherzod Usmonov	Jadidlar va o‘zbek milliy demokratik matbuot masalalari…..	139
Mohigul Ergasheva	Begali Qosimov – jadidshunos.....	141
Lola Qo‘ziboyeva	Jadid obrazining dramatik talqinlari.....	143
Nurali Murodullayev	Fitratning jadidchilik qarashlari to‘grisida.....	146
Mehri Kenjayeva	Cho‘lponning “Yangi men” she’rida yo‘lovchi obrazi talqini.....	148
Muslima Ahmadjonova	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi obrazlar tabiati tahlili.....	150
Munisa Nishonova	Nozimaxonim ijodida ma`rifat talqinlari.....	152

3- SHO‘BA. JADIDCHILIK VA TURKIY XALQLAR ADABIYOTI

Saidbek Boltabayev	Jadidchilik harakati bo’yicha turkiyada amalga oshirilgan dissertatsiyalar	155
Oybek Barziyev	Milliy uyg‘onish davri Farg‘ona vodiysi she’riyati va turkman, tatar adabiyotidagi g‘oyaviy mushtarakliklar.....	161
Sarvarbek Tuliboyev	Turkiston madaniy hayotining turk matbuotida yoritilishi	164

4- SHO‘BA. JADIDCHILIK VA TURKIY TILLAR MUAMMOSI

Хаджар Гусейнова	Выражение количеств лексическим путем на турецких языках.....	169
Xo‘jamurod Jabborov	O‘zbek tili sofligini saqlashda jadidlarning o‘rni.....	176
Yusuf Avci	Ceditçilikte dil ve edebiyat gayelerinin uygulanişi ve bir karşilaştirma.....	179
Qo‘ldosh Pardayev	Jadidlar ijodida til masalasi.....	182
Xurshid Ahmadov	O‘zbek milliy ziyolilarning 1929-yilgi alifbo islohotiga munosabati.....	185

5-SHO‘BA. TA’LIM BOSQICHLAIDA JADIDCHILIK VA JADID ADABIYOTINING O‘QITILISHI

Saodat Mo‘minova	Oliy ta’limda “Qodiriy – o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotni tashkil etish..	188
Umriniso To‘rayeva	O‘zbek jadid adabiyotini o‘rganish masalalari adabiyotshunos Begali Qosimov tadqiqotlari misolida).....	191
Okila Turakulova	Jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik merosi.....	194
Soxibaxon Islomova	Qatag‘on qilingan ijodkorlar asarlarini qayta nashr qilish muammolari.....	196

ILMIY NASHR

MUXAYYO RAYXONOVA

SHE’RIYAT:
OLAMNI IDROK ETISH VA BADIIY TASVIR

MONOGRAFIYA

Muharrir: *Y.Ziyodov.*
Texnik muharrir: *K.Temirova.*
Musahhih: *Y.Ziyodov.*
Sahifalovchi: *K. Eshmurodova.*

Nashriyot litsenziyasi № 5858-775f-17d6-89d3-a021-1994-5946. 22.07.2020. Terishga 02.10.2023-yilda berildi. Bosishga 10.10.2023-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84$_{1/8}$. Shartli bosma tabog‘i-24,51. Ofset usulida chop etildi. Times New Roman garniturasi. Ofset qog‘ozi. Nashr bosma tabog‘i-25,2. 2023-shartnoma. 36-buyurtma. 10 nusxada. 202 bet. Erkin narxda.

«Nasaf nashriyot – matbaa ijodiy uyi» MCHJ, 180118.
Qarshi shahri, Mustaqillik shohko‘chasi, 22-uy.

«Nasaf nashriyot – matbaa ijodiy uyi», MCHJda chop etildi.
180118. Qarshi shahri, “O‘zbekiston ovozi” ko‘chasi, 33-uy


«НАСАФ НАШРИЁТ - МАТБАА ИЖОДИЙ УЙИ» МЧЖ


9 789910 971198